

Fanlar akademiyasining bir qator yosh olimlari “Jamg’arma stipendiati” deb e’tirof etildi

Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo’yicha “El-yurt umidi” jamg’armasining matematika, kimyo, biologiya va geologiya fanlari yo’nalishlari bo’yicha e’lon qilingan tanlovda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining bir qator yosh olimlari “Jamg’arma stipendiati” deb e’tirof etildilar. Jumladan,

Toshtemirov Bahodirjon Hayotjon o’g’li - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti tayanch doktoranti;

Nurjanov Berdax Orinbayevich - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Qoraqalpog’iston bo’linmasi katta ilmiy xodimi;

Safarov Akbar Raxmanovich - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Samarqand bo’linmasi kichik ilmiy xodimi;

Atamuratov Alimardon Abdirimovich - V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Xorazm bo’linmasi katta ilmiy xodimi;

Kurbaniyazova Gulsair Tanirbergen qizi - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti kichik ilmiy xodimi;

Azizova Zuxra Shuxratovna - O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti kichik ilmiy xodimi;

Masharipova Sharofat Muxammadovna - Xorazm Ma’mun akademiyasi doktoranti.

Fanlar akademiyasi rahbariyati barcha g’oliblarni muborakbod etadi hamda ularga ilmiy ishlarida yuksak parvozlar tilab qoladi.